



МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALAR XULQIDAGI SALBIY O'ZGARISHLARNING KELIB CHI QISH SABABLARI VA OMILLARI

*Choriyeva F.
Ilmiy rahbar
Xusanova D.
Magistr*

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, bola, xulq-atvor, salbiy o'zgarish, subektiv omil, muammo, temperament.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, поведение, негативные изменения, субъективный фактор, проблема, темперамент.

Key words: preschool education, child, behavior, negative changes, subjective factor, problem, temperament.

Har qanday jamiyatning yutug'i jismonan va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Biroq turli sabab va omillarga ko'ra ayrim hollarda yoshlar tarbiyasida buzilish va bo'shliqlar borligi kuzatiladi. Tashvishlanarlisi shundaki, bunday illatli holatlarning kamayishi deyarli sezilmayapti. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning xulq-atvori ilk bolalik davridan boshlab shakllana boshlaydi. Bolalar xulq-atvorining shakllanish jarayoni birmuncha murakkab jarayon bo'lib, u kattalardan o'ta mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishni talab etadi. Chunki mana shu jarayonda kattalarning xatosi tufayli bola kelajagiga putur yetishi va bola jamiyatda o'z o'rnini topishiga qiynalishi mumkin. Biz mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bolalar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablari va omillarini o'rganishga harakat qildik.

Davlatimiz rahbarining fikricha, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishlari, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatlarini yuzaga



chiqarishlari, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz. Imom Buxoriy bobomiz to'plagan muborak hadislardan birida: "Yoshlikda o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir"—deb aytiladi.

Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo'shganlari tarixdan yaxshi ma'lum. Ana shunday qutlug'an'analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir"[10]. Mana shu burchni bajarish uchun esa yoshlarni bolalikdanoq to'g'ri tarbiyalash, ruhiy barqaror qilib ulg'aytirish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsi uni o'rab turgan voqelik ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vazifalarni anglay boshlaydi va jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa bola shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Shu bilan birga, bola shaxsi ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirish natijasida shakllanib boradi. Ya'ni bu jarayon bolalar tomonidan kattalarning xatti-harakatlarini takrorlash va taqlid qilish, o'zlashtirish bilan kechadi. Obyektiv omil sifatida B.Umarov ushbu fikrni ilgari suradi: "Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog'lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar..."ni e'tirof etadi [94; 6] Ijtimoiy hayotda nosog'lom muhit bor ekan, demak, maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi o'zgarishlar ham, avvalo, uni o'rab turgan nosog'lom muhit ta'sirida sodir bo'ladi. Ma'lumki, oila go'dak uchun ilk ijtimoiylashuv markazidir.

Aynan shu markazda bola ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirisha boshlaydi, jamiyatdagi ijtimoiy meyorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Go'dak oilada voyaga yetar ekan, u kattalarning o'zaro munosabatlarini kuzatadi va ulardan andoza oladi. Shular asosida bolaning xulq-atvori shakllanib boradi. Ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning u yoki bu ko'rinishi, ya'ni oiladagi xotirjamlik yoki kelishmovchilik, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xususiyati bolaning xulq-atvorini belgilab beruvchi omillar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, bunda oiladagi nizolar, ota-onalardan birining nomaqbul xulq-atvori va ularning farzand tarbiyasiga nisbatan befarqligi, qattiqqo'lligi natijasida sodir bo'ladi. Bu borada mashhur psixolog olim Getting tadqiqotlariga nazar tashlash kifoya. Uning fikricha, oilalardagi muammo va nizolar bolalardagi



agressivlikni keltirib chiqarishi, ayniqsa, ularning qahrli, jahldor, qo‘pol bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘ladi. Gettingning xulosalariga ko‘ra, mojaroli oilalarda asosiy e‘tibor o‘zaro ziddiyatlarga qaratiladi, bola tarbiyasi esa tahdid va jazolashdan iborat bo‘lib qolaveradi [44;175]

Kelajak avlod haqida qayg‘urish, jismoniy va ma‘naviy sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdan biridir. Xuddi shunday bugungi kunning har bir oilasi va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifa ham shu hisoblanadi. Ota-ona farzand ko‘rish va uni tarbiyalash orzusi bilan yashar ekan, uning kelajakda yetuk inson, komil shaxs bo‘lishini istaydi. Bu masala har bir pedagog, ta‘lim muassasasining ham jamiyat oldidagi burchi bo‘lib, ota-ona kabi ustozlar ham shogirdlarini yetuklik sari da‘vat etadi.

Demak, oqil farzand nafaqat ota-ona, balki ustoz, qolaversa jamiyatning, yurtning baxtu iqbolidir. Shunday ekan, “ta‘lim-tarbiya kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg‘or tizimni yaratmasak, oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turgan bironta muammoni yecholmaymiz” [9;148]. Bu ishlarni “jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan munosabatini butunlay o‘zgartirmasdan turib” amalga oshirib bo‘lmaydi [9; 149].

Psixolog olim B.Umarov “Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar” nomli uslubiy qo‘llanmasida bolalar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarning sababini subyektiv va obyektiv omillarga ajratadi va subyektiv sabablarga quyidagilarni kiritadi: “Xulq og‘ishining subyektiv sabablariga o‘smir shaxsining qiziqish va ehtiyojlari, dunyoqarash va ma‘naviy olami, maqsad va yo‘nalishlari, qadriyatlarini, huquqiy ongi, hayotiy rejalari, turmush tarzi va motivlari kiradi.

Subyektiv shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, etnopsixologik jihatlari, xarakteri, temperamenti, yoshi va jinsi mansub. Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar namoyon bo‘ladi” [94; 6-7].

Xuddi shunday biz ham maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning subyektiv omillariga bola shaxsining shakllanish jarayonidagi muammolar, ularning temperamentidagi xususiyatlarni kiritdik.

Umuman olganda, bolalar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar biror-bir shaxsga xos subyektiv xulq-atvor natijasi emas, balki subyektiv va obyektiv omillar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlar sababi bir necha omillar ta‘sirida sodir bo‘ladi. Bizningcha, ular quyidagilar hisoblanadi:



Oilaviy muhitning nosogʻlomligi.

2. Ota-onalarda bolalar psixologiyasi va fiziologiyasi, pedagogikasiga doir bilimlarning yetishmasligi.

3. Bola kun tartibining toʻgʻri tashkil etilmaganligi.

4. Oilada farzand koʻrishning rejalashtirilmaganligi.

5. Bolada har qanday jamoaga nisbatan adaptiv jarayonning qiyin kechishi.

6. Ommaviy axborot vositalarining salbiy taʼsiri.

7. Bola tarbiyasiga notoʻgʻri yondashish.

Umuman olganda, yuqoridagi sabab va omillar tufayli bolalar xulq-atvorida juda koʻp muammolar uchramoqda. Bu, oʻz navbatida, jamiyat aʼzolari, xususan, pedagog va psixolog, ota-onalar zimmasiga qator vazifalarni yuklamoqda.

Ayniqsa, bu borada oila bilan olib boriladigan profilaktik ishlar samaradorligini yanada oshirish, ota-onalarga bolalar psixikasi, fiziologiyasi va pedagogikasiga doir bilimlar berishni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Rasulova F.F. “Oʻsmirlarda agressiv xulq-atvor namoyon boʻlishining psixologik xususiyatlari”.: ped. fanl. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 22 b.
2. Sattorov M. “Oʻzbek udumlari: millatning kenja boʻgʻiniga”. – Toshkent: “Fan”, 1993. – 48 b.
3. Sattor Mahmud. “Oʻzbek udumlari”. – Toshkent: “Fan”, 1993. – 222 b.
4. Safarov O., Mahmudov M. “Oila maʼnaviyati”. – Toshkent: “Maʼnaviyat”, 1998. – 160 b.
5. Semenyuk L.M. “Psixologicheskoye osobennosti agressivnogo povedeniya podrostkov i usloviya yego korreksii”. – Moskva-Voronej, 1996. – S. 6-18.
6. Sidiqmetov Q. “Islom odoblari ensiklopediyasi”. Ikkinchi kitob. –Toshkent.: “Hilol-Nashr”, 2019. – B. 342.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy oʻzgarishlarning subyektiv omillariga bola shaxsining shakllanish jarayonidagi muammolar, ularning temperamentidagi xususiyatlar.

РЕЗЮМЕ

К субъективным факторам негативных изменений в поведении детей дошкольного возраста относятся проблемы в процессе формирования личности ребенка, особенности его темперамента.

SUMMARY

Subjective factors include negative changes in the behavior of young children related to problems in the formation of the child's personality and the characteristics of his temperament.